18.	<p>G.Z. Shodikulova, Sh.N. Sadikova Revmatoid artritda osteoporoz rivojlanish xavfini kompleks kliniko-genetik va instrumental baholash: D vitamini metabolizmi, VDR polimorfizmlari va suyak mineral zichligi parametrlari Г.З. Шодикүлова, Ш.Н. Садикова Комплексная клинко-генетическая и инструментальная оценка риска развития остеопороза при ревматоидном артрите: метаболизм витамина Д, полиморфизмы VDR и параметры минеральной плотности костей</p> <p>G.Z. Shodikulova, Sh.N. Sadikova Comprehensive clinical-genetic and instrumental assessment of the risk of osteoporosis in rheumatoid arthritis: metabolism of vitamin D, VDR polymorphism and parameters of bone mineral density.....</p>	92
19.	<p>Г.З. Шодикүлова, О.Ф. Шамсиев Клинко-патогенетические аспекты развития остеопороза у женщин G.Z. Shodikulova, O.F. Shamsiev Clinical and pathogenetic aspects of osteoporosis development in women G.Z. Shodikulova, O.F. Shamsiyev Ayollarda osteoporoz rivojlanishining klinik-patogenetik jihatlari.....</p>	96
20.	<p>Мирзаев О.В., Нурмаматов Ж.Х. Распространенность и клинко-генетические особенности дисплазии соединительной ткани у узбекского населения Mirzayev O.V., Nurmatov J.Kh. Prevalence and clinical - genetic features of connective tissue dysplasia in the uzbek population Mirzayev O.V., Nurmatov J.X. O‘zbek populyatsiyasida biriktiruvchi to‘qima displaziyasining tarqalishi va kliniko-genetik xususiyatlari.....</p>	102

**Ахмедов И.А.**

Ассистент кафедры внутренних болезней №1 имени доцента Н.А. Абдуллаева, Самаркандский государственный медицинский университет, PhD,
Самарканд, Узбекистан

Шодиккулова Г.З.

Заведующая кафедрой внутренних болезней №3, Самаркандский государственный медицинский университет, доктор медицинских наук, профессор,
Самарканд, Узбекистан

ОЦЕНКА КЛИНИЧЕСКОЙ И ИММУНОЛОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГЕННО-ИНЖЕНЕРНЫХ БИОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ИНФУЗИОННОЙ ПОМПЫ У ПАЦИЕНТОВ С РЕВМАТИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

For citation: I.A. Akhmedov, G.Z. Shodikulova EVALUATION OF THE CLINICAL AND IMMUNOLOGICAL EFFECTIVENESS OF GENETICALLY ENGINEERED BIOLOGICAL DRUGS ADMINISTERED VIA AN INFUSION PUMP IN RHEUMATIC DISEASES
Journal of cardiorespiratory research. 2026, vol 7, issue 2/3.



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974/2026/7/2/3/2>

АННОТАЦИЯ

Ревматические заболевания представляют собой хронические прогрессирующие воспалительные патологии, ассоциированные с нарушениями иммунной регуляции и приводящие к снижению функциональной активности и качества жизни пациентов. Целью настоящего исследования явилась оценка клинической и иммунологической эффективности применения генно-инженерных биологических препаратов с использованием инфузионной помпы. В исследование были включены 127 пациентов, разделённых на две группы: стандартной инфузии и инфузионной помпы. Клиническая активность заболевания оценивалась с использованием индексов DAS28 и SLEDAI, качество жизни — по шкалам HAQ-DI и SF-36. Иммунологическое исследование включало определение уровней цитокинов IL-3, IL-6, IL-7, а также субпопуляций лимфоцитов CD3, CD4, CD8 и CD19. Полученные результаты продемонстрировали статистически значимое снижение активности заболевания, уменьшение воспалительных маркеров и нормализацию иммунологических показателей у пациентов, получавших терапию с использованием инфузионной помпы. Таким образом, данный метод может рассматриваться как эффективный инструмент оптимизации лечения ревматических заболеваний.

Ключевые слова: ревматоидный артрит, системная красная волчанка, генно-инженерные биологические препараты, инфузионная помпа, цитокины, иммунный ответ

Akhmedov I.A.

Assistant, Department of Internal Medicine No. 1 named after Associate N.A. Abdullaev, Samarkand State Medical University, PhD,
Samarkand, Uzbekistan

Shodikulova G. Z.

Head of the Department of Internal Medicine No. 3, Samarkand State Medical University, Doctor of Medical Sciences, Professor,
Samarkand, Uzbekistan

EVALUATION OF THE CLINICAL AND IMMUNOLOGICAL EFFECTIVENESS OF GENETICALLY ENGINEERED BIOLOGICAL DRUGS ADMINISTERED VIA AN INFUSION PUMP IN PATIENTS WITH RHEUMATIC DISEASES

ANNOTATION

Rheumatic diseases are chronic progressive inflammatory disorders associated with immune dysregulation and leading to decreased functional capacity and impaired quality of life. The aim of this study was to evaluate the clinical and immunological effectiveness of genetically engineered biological drugs administered using an infusion pump. A total of 127 patients were included and divided into two groups: a standard infusion group and an infusion pump group. Disease activity was assessed using DAS28 and SLEDAI indices, while quality of life was evaluated using HAQ-DI and SF-36 questionnaires. Immunological analysis included measurement of cytokines IL-3, IL-6, IL-7 and lymphocyte subpopulations CD3, CD4, CD8, and CD19. The results demonstrated a statistically significant reduction in disease activity, decreased inflammatory cytokine levels, and normalization of immune parameters in patients receiving infusion pump therapy. These findings indicate that this approach can be considered an effective strategy for optimizing treatment outcomes in patients with rheumatic diseases.

Keywords: rheumatoid arthritis, systemic lupus erythematosus, biologic agents, infusion pump, cytokines, immune response

Akhmedov I.A.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, N.A. Abdullayev nomidagi 1-son ichki kasalliklar kafedrası assistenti, PhD, Samarqand, O'zbekiston

Shodikulova G.Z.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 3-son ichki kasalliklar kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand, O'zbekiston

REVAMATIK KASALLIKLARDA INFUZION POMPA YORDAMIDA GEN-MUHANDISLIK BIOLOGIK DORI VOSITALARINI QO'LLASHNING KLINIK VA IMMUNOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH

ANNOTATSIYA

Revmatik kasalliklar immun tizimi buzilishlari bilan bog'liq bo'lgan surunkali progressiv yallig'lanish kasalliklari bo'lib, bemorlarning funksional holati va hayot sifatining pasayishiga olib keladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi infuzion pompa yordamida qo'llaniladigan gen-muhandislik biologik dori vositalarining klinik va immunologik samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqotga 127 nafar bemor jalb qilinib, ular ikki guruhga ajratildi: standart infuziya va infuzion pompa guruhi. Kasallik faolligi DAS28 va SLEDAI indekslari asosida, hayot sifati esa HAQ-DI va SF-36 so'rovnomalari yordamida baholandi. Immunologik tekshiruvlar doirasida IL-3, IL-6, IL-7 sitokinlari hamda CD3, CD4, CD8, CD19 limfotsit subpopulyatsiyalari o'rganildi. Natijalar infuzion pompa qo'llangan guruhda kasallik faolligining ishonchli pasayishini, yallig'lanish markerlarining kamayishini va immun ko'rsatkichlarning normallashtirishini ko'rsatdi. Ushbu usul revmatik kasalliklarni davolash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: revmatoid artrit, tizimli qizil yugurik, biologik preparatlar, infuzion pompa, sitokinlar, immun javob

Revmatik kasalliklar dunyo aholisi orasida keng tarqalgan bo'g'imlarning surunkali immun-yallig'lanish kasalliklari guruhiga kirib, bu bemorlarda mehnat qobiliyatining yo'qolishi, erta yoshda nogironlik hamda hayot sifatining pasayishiga olib keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, revmatoid artrit (RA) va tizimli qizil yugurik (SKV) kasalliklari aholining taxminan 1-2% ida uchraydi [1,2,3].

Uzoq vaqt davomida revmatik kasalliklarni davolashda an'anaviy bazis dori vositalari (metotreksat, leflunomid va boshqalar) asosiy davolovchi vosita hisoblangan. Biroq, bu dori vositalari tizimli yallig'lanish jarayonlarini to'liq nazorat qilish uchun yetarli samara bermaydi. So'nggi yillarda revmatologiya amaliyotida biologik gen-muhandislik dori vositalari keng qo'llanila boshladi. Ushbu preparatlar immun-yallig'lanish jarayonining molekulyar mexanizmlariga ta'sir ko'rsatib, kasallik patogenezining asosiy bo'g'inlarini bloklash imkonini beradi. Biroq, revmatik kasalliklarni davolashda ushbu preparatlarning immunologik markerlarga ta'siri hali to'liq o'rganilmagan [7,8,9].

Shu sababli, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar revmatik kasalliklar patogenezini chuqurroq o'rganish va davolash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi: revmatik kasalliklarni davolashda genoinjener biologik dori vositalarini infuzion pompa yordamida qo'llashning klinik va immunologik samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari: SamDTU ko'p tarmoqli klinikasi revmatologiya bo'limida 127 nafar (shundan 92 nafari revmatoid artrit va 35 nafari tizimli qizil yugurik tashxisi qo'yilgan) bemorlar jalb

etildi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruhda genoinjener biologik dori vositalarini oddiy infuziya orqali qo'llanildi. Ikkinchi guruhda esa infuzion pompa yordamida yuborildi. Tadqiqotda biologik preparatlardan infliksimab, totsilizumab va rituksimab qo'llanildi. Infuzion pompa orqali infuziya davomiyligi o'rtacha 12 soatni tashkil qildi.

Bemorlarda kasallikning klinik holati revmatoid artritda DAS28 va tizimli qizil yugurikda SLEDAI indekslari asosida, bemorlarning hayot sifati esa HAQ-DI va SF-36 so'rovnomalari asosida o'rganildi. Immunologik tekshiruvlar doirasida IL-6, IL-7 va IL-3 sitokinlari hamda CD3, CD4, CD8 va CD19 limfotsit subpopulyatsiyalari ko'rsatkichlar o'rganildi.

Tadqiqotga jalb qilingan bemorlarda davolashdan oldin revmatoid artrit bilan og'rikan bemorlarda DAS28 indeksi o'rtacha 4,8±0,9 darajada, tizimli qizil yugurik bilan og'rikan bemorlarda SLEDAI indeksi o'rtacha 18,4±2,1 ni tashkil qildi, bu esa bemorlarda kasallikning yuqori faollik darajasini ko'rsatadi. Hayot sifati HAQ-DI indeksi bilan baholanganda revmatoid artrit bilan kasallangan bemorlarda 1,8 ±0,4 ni, tizimli qizil yugurik bilan kasallangan bemorlarda esa 1,6±0,3 ni tashkil etdi. SF-36 so'rovnomasi natijalari revmatoid artrit bilan og'rikan bemorlarda umumiy 39,6±6,2 ballini, tizimli qizil yugurik bilan og'rikan bemorlarda esa 41,3±5,8 ballini tashkil etib, bemorlarda jismoniy, emotsional va ijtimoiy faoliyatning cheklanishi bilan bog'liq hayot sifatining sezilarli darajada pasayganini ko'rsatdi. Tadqiqotga jalb qilingan barcha bemorlarda klinik indekslar va hayot sifati ko'rsatkichlari revmatik kasalliklarning yuqori faollik darajasiga mos kelishi qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

Bemorlarda klinik indekslar va hayot sifati ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Revmatoid artrit (n=92)	Tizimli qizil yugurik (n=35)
DAS28	4,8±0,9	-
SLEDAI	-	18,4±2,1
HAQ-DI	1,8±0,4	1,6±0,3
SF-36 (umumiy ball)	39,6±6,2	41,3±5,8

Tadqiqotimizda immunologik tekshiruvlar natijalariga ko'ra tadqiqotga kiritilgan bemorlarda yallig'lanish sitokinlarining yuqori darajada ekani qayd etildi, buni 2-jadvalda ko'ramiz.

2-jadval

Bemorlarda sitokinlar darajasi

Ko'rsatkichlar	Revmatoid artrit (n=92)	Tizimli qizil yugurik (n=35)
IL-3 (pg/ml)	12,4±2,2	11,8±2,0
IL-6 (pg/ml)	34,2±5,6	31,8±4,9
IL-7 (pg/ml)	18,6±3,4	17,9±3,1

2-jadval natijalarining tahlilida IL-3 sitokini ko'rsatkichlari revmatoid artrit bilan og'rikan bemorlarda o'rtacha 12,4±2,2 pg/ml ni,

tizimli qizil yugurik bilan og'rikan bemorlarda o'rtacha 11,8±2,0 pg/ml ni tashkil qildi; IL-6 darajasi esa revmatoid artrit bilan og'rikan

bemorlarda o'rtacha 34,2±5,6 pg/ml da, tizimli qizil yugurik bilan og'rigan bemorlarda esa o'rtacha 31,8±4,9 pg/ml da aniqlandi; IL-7 darajasi ham har ikkala guruhdagi bemorlarda normaga nisbatan oshgani kuzatildi, ya'ni revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda o'rtacha 18,6±3,4 pg/ml ni, tizimli qizil yugurik bilan og'rigan bemorlarda esa o'rtacha 17,9±3,1 pg/ml ko'rsatkichlarni tashkil qildi.

Tadqiqotimizda bemorlarda limfotsitlar subpopulyatsiyasining davolashdan oldin tahlil qilish natijalari revmatik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarda immun tizimining disbalansligi mavjudligini ko'rsatdi (3-jadval).

3-jadval

Bemorlarda limfotsitlar subpopulyatsiyasi darajasi

Ko'rsatkichlar	Revmatoid artrit (n=92)	Tizimli qizil yugurik (n=35)
CD3 (%)	68,4±5,2	66,7±4,8
CD4 (%)	41,2±4,3	39,6±4,1
CD8 (%)	26,5±3,9	27,8±3,7
CD19 (%)	14,6±2,5	16,2±2,7

Jadval natijalarining tahlilida Revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda CD3+ T-limfotsitlar darajasi o'rtacha 68,4±5,2 % ni, CD4+ T-xelper hujayralar ko'rsatkichi 41,2±4,3 % ni, CD8+ sitotoksik T-limfotsitlar darajasi 26,5±3,9 % ni, CD19+ V-limfotsitlar darajasi esa 14,6±2,5 % ni tashkil qildi. Tizimli qizil yugurik bilan og'rigan bemorlarda CD3+ T-limfotsitlar darajasi o'rtacha 66,7±4,8 % ni, CD4+

T-xelper hujayralar ko'rsatkichi 39,6±4,1 % ni, CD8+ sitotoksik T-limfotsitlar darajasi 27,8±3,7 % ni, CD19+ V-limfotsitlar darajasi esa 16,2±2,7 % ni tashkil qildi.

Tadqiqotimizda revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda infuzion pompa orqali genno-injener biologik preparatlar qo'llangan guruhda klinik indekslar ancha yaxshi natija ko'rsatdi (4-jadval).

4-jadval

Revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda klinik indekslar dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Oddiy infuziya (n=47)	Infuzion pompa (n=45)	p
DAS28	3,5±0,7	2,6±0,5	<0,01
HAQ-DI	1,1±0,3	0,7±0,2	<0,01
SF-36	56,3±7,6	69,1±8,3	<0,01

Izoh: p-oddiiy infuziya guruhiga nisbatan statistik ishonchli farqi.

4-jadval natijalarining tahlilida revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda gen-injener biologik dori vositalarini qo'llashdan keyin oddiiy infuziya usuli qo'llangan guruhda DAS28 indeksi o'rtacha 3,5±0,7 ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa yordamida davolangan bemorlarda bu ko'rsatkich 2,6±0,5 gacha pasaydi (p<0,01). Bemorlarning funksional holati HAQ-DI indeksi bo'yicha baholangan ham infuzion pompa guruhida yaxshiroq natijalar qayd etildi. Oddiiy infuziya guruhida HAQ-DI ko'rsatkichi 1,1±0,3 ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida mazkur ko'rsatkich 0,7±0,2 gacha kamaygani kuzatildi (p<0,01). Bu bemorlarning kundalik hayot faoliyatini bajarishdagi funksional imkoniyatlari yaxshilanganini

ko'rsatadi. Bemorlarning hayot sifati SF-36 anketa natijalari asosida baholangan ham infuzion pompa usuli qo'llangan guruhda yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Oddiiy infuziya guruhida SF-36 umumiy balli 56,3±7,6 ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida mazkur ko'rsatkich 69,1±8,3 gacha oshgani aniqlandi (p<0,01).

Revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda davolashdan keyin yallig'lanish sitokinlarining dinamikasi tahlil qilinganda ikki guruhda ham ularning darajasi pasaygani qayd etildi, biroq infuzion pompa yordamida gen-injener biologik preparatlar qo'llangan guruhda mazkur o'zgarishlar yanada yaqqolroq kuzatildi (5-jadval).

5-jadval

Revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda sitokinlar dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Oddiiy infuziya (n=47)	Infuzion pompa (n=45)	p
IL-3 (pg/ml)	9,9±1,8	7,4±1,3	<0,01
IL-6 (pg/ml)	18,8±3,4	11,6 ± 2,5	<0,001
IL-7 (pg/ml)	13,7±2,6	9,5±2,1	<0,01

Izoh: p-oddiiy infuziya guruhiga nisbatan statistik ishonchli farqi.

5-jadval natijalarining tahliliga ko'ra IL-3 sitokini darajasi oddiiy infuziya guruhida o'rtacha 9,9±1,8 pg/ml ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa orqali davolangan bemorlarda ushbu ko'rsatkich 7,4±1,3 pg/ml gacha kamaygani qayd etildi. Bu farq statistik jihatdan ishonchli ekani kuzatildi (p<0,01). Yallig'lanish jarayonining asosiy mediatorlaridan biri hisoblangan IL-6 sitokini darajasi ham infuzion pompa guruhida sezilarli darajada pasaygani kuzatildi. Oddiiy infuziya guruhida IL-6 ko'rsatkichi 18,8±3,4 pg/ml ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida mazkur ko'rsatkich 11,6±2,5 pg/ml gacha

kamaygani aniqlandi. Bu farq statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli ekani qayd etildi (p<0,001). IL-7 sitokini darajasi ham har ikkala guruhda pasaygani kuzatildi. Oddiiy infuziya guruhida mazkur ko'rsatkich 13,7±2,6 pg/ml ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida 9,5±2,1 pg/ml gacha kamaygani aniqlandi (p<0,01).

Revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda davolashdan keyin limfotsitlar subpopulyatsiyasi ko'rsatkichlarining dinamikasi tahlil qilinganda immun tizim faolligining ma'lum darajada normallashtirilganligi qayd etildi (6-jadval).

6-jadval

Revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda limfotsitlar subpopulyatsiyasi dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Oddiiy infuziya (n=47)	Infuzion pompa (n=45)	p
CD3 (%)	65,2±4,7	62,0±4,2	<0,05
CD4 (%)	38,7±3,9	35,1±3,5	<0,01
CD8 (%)	27,2±3,6	28,4±3,4	>0,05
CD19 (%)	12,7±2,3	10,3±2,1	<0,01

Izoh: p-oddiiy infuziya guruhiga nisbatan statistik ishonchli farqi.

6-jadvaldagi keltirilgan natijalarining tahlilida CD3+ T-limfotsitlar darajasi oddiiy infuziya guruhida o'rtacha 65,2±4,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa yordamida davolangan bemorlarda mazkur

ko'rsatkich 62,0±4,2 % gacha kamaygani kuzatildi. Bu farq statistik jihatdan ishonchli ekani qayd etildi (p<0,05). CD4+ T-xelper hujayralar darajasi ham infuzion pompa guruhida ancha past bo'lgani aniqlandi.

Oddiy infuziya guruhida ushbu ko'rsatkich 38,7±3,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida 35,1±3,5 % gacha kamaygani qayd etildi (p<0,01). Bu holat yallig'lanish jarayonining susayishi va immun tizim faolligining kamayishi bilan izohlanishi mumkin. CD8+ sitotoksik T-limfotsitlar ko'rsatkichlari ikki guruhda ham deyarli bir xil darajada bo'lib, infuzion pompa guruhida 28,4±3,4 %, oddiy infuziya guruhida esa 27,2±3,6 % ni tashkil etdi. Bu farq statistik jihatdan ahamiyatli emasligi kuzatildi (p>0,05). CD19+ V-limfotsitlar darajasi infuzion pompa yordamida davolangan bemorlarda sezilarli darajada kamaygani

kuzatildi. Oddiy infuziya guruhida mazkur ko'rsatkich 12,7±2,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida 10,3±2,1 % gacha pasaygani kuzatildi (p<0,01).

Olib borgan tadqiqotimizda tizimli qizil yugurik bilan og'rigan bemorlarda davolashdan keyin klinik indekslar dinamikasi tahlil qilinganda har ikki guruhda ham kasallik faolligining pasayishi qayd etildi, biroq infuzion pompa yordamida gen-injener biologik preparatlar qo'llangan bemorlarda mazkur o'zgarishlar yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi (7-jadval).

7-jadval

Tizimli qizil yugurik bilan og'rigan bemorlarda klinik indekslar dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Oddiy infuziya (n=18)	Infuzion pompa (n=17)	p
SLEDAI	7,3±1,6	4,6±1,3	<0,01
HAQ-DI	1,0±0,3	0,6±0,2	<0,05
SF-36	55,1±7,2	67,4±7,9	<0,01

Izoh: p-oddiy infuziya guruhiga nisbatan statistik ishonchli farqi.

7-jadval natijalarining tahlilida kasallik faolligi SLEDAI indeksi yordamida baholanganda oddiy infuziya guruhida ko'rsatkichlarimiz o'rtacha 7,3±1,6 ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa usuli qo'llanilgan guruhida 4,6±1,3 gacha pasaygani kuzatildi. Bu farq statistik jihatdan ishonchli ekani qayd etildi (p<0,01). Bemorlarning funksional holati HAQ-DI indeksi asosida baholanganda infuzion pompa guruhida yaxshiroq natijalar kuzatildi. Oddiy infuziya guruhida HAQ-DI ko'rsatkichi 1,0±0,3 ga, infuzion pompa usuli qo'llanilgan guruhida ko'rsatkichlar 0,6±0,2 gacha kamaygani qayd etildi (p<0,05). Bemorlarning hayot sifati SF-36 so'rovnomasini natijalariga ko'ra ham

infuzion pompa guruhida sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi. Oddiy infuziya guruhida SF-36 umumiy balli 55,1±7,2 ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa usuli qo'llanilgan guruhida mazkur ko'rsatkich 67,4±7,9 gacha oshgani aniqlandi (p<0,01).

Tizimli qizil yugurik bilan og'rigan bemorlarda davolashdan keyin yallig'lanish sitokinlarining dinamikasi tahlil qilinganda har ikki guruhda ham ularning darajasi pasaygani qayd etildi, biroq infuzion pompa yordamida gen-injener biologik preparatlar qo'llangan bemorlarda mazkur o'zgarishlar yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi (8-jadval).

8-jadval

Tizimli qizil yugurik bilan og'rigan bemorlarda sitokinlar dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Oddiy infuziya (n=18)	Infuzion pompa (n=17)	p
IL-3 (pg/ml)	9,4±1,7	7,3±1,3	<0,05
IL-6 (pg/ml)	17,9±3,2	11,3±2,4	<0,01
IL-7 (pg/ml)	12,8±2,4	9,2±2,0	<0,01

Izoh: p-oddiy infuziya guruhiga nisbatan statistik ishonchli farqi.

8-jadval natijalarining tahlilida IL-3 sitokini darajasi oddiy infuziya guruhida o'rtacha 9,4±1,7 pg/ml ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida mazkur ko'rsatkich 7,3±1,3 pg/ml gacha kamaygani qayd etildi. Bu farq statistik jihatdan ishonchli ekani aniqlandi (p<0,05). Yallig'lanish jarayonining asosiy mediatorlaridan biri hisoblangan IL-6 sitokini darajasi ham infuzion pompa guruhida ancha past bo'lgani kuzatildi. Oddiy infuziya guruhida IL-6 ko'rsatkichi 17,9±3,2 pg/ml ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida mazkur ko'rsatkich 11,3±2,4 pg/ml gacha pasaygani qayd etildi. Bu farq statistik jihatdan

ishonchli ekani aniqlandi (p<0,01). Shuningdek 8-jadvalda, IL-7 sitokini darajasi ham infuzion pompa guruhida sezilarli darajada kamaygani kuzatildi. Oddiy infuziya guruhida mazkur ko'rsatkich 12,8±2,4 pg/ml ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida 9,2±2,0 pg/ml gacha kamaygani aniqlandi (p<0,01).

Tizimli qizil yugurik bilan og'rigan bemorlarda davolashdan keyin limfotsitlar subpopulyatsiyalari ko'rsatkichlarining dinamikasi tahlil qilinganda immun tizim faolligining ma'lum darajada normallashtirish qayd etildi (9-jadval).

9-jadval

Tizimli qizil yugurik bilan og'rigan bemorlarda limfotsitlar subpopulyatsiyalari dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Oddiy infuziya (n=18)	Infuzion pompa (n=17)	p
CD3 (%)	64,7±4,6	61,8±4,1	<0,05
CD4 (%)	37,8±3,7	34,5±3,3	<0,01
CD8 (%)	28,2±3,5	29,4±3,3	>0,05
CD19 (%)	14,9±2,4	11,5±2,0	<0,01

Izoh: p-oddiy infuziya guruhiga nisbatan statistik ishonchli farqi.

9-jadval natijalarining tahlilida CD3+ T-limfotsitlar darajasi oddiy infuziya guruhida o'rtacha 64,7±4,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa yordamida davolangan bemorlarda mazkur ko'rsatkich 61,8±4,1 % gacha pasaygani kuzatildi. Bu farq statistik jihatdan ishonchli ekani ko'rsatdi (p<0,05). CD4+ T-xelper hujayralar ko'rsatkichlari ham infuzion pompa guruhida ancha past bo'lgani aniqlandi. Oddiy infuziya guruhida CD4 darajasi 37,8±3,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida mazkur ko'rsatkich 34,5±3,3 % gacha kamaygani qayd etildi (p<0,01). Bu holat immun yallig'lanish jarayonining susayishi bilan izohlanishi imkonini berdi. CD8+ sitotoksik T-limfotsitlar darajasi ikki guruhda ham deyarli bir xil darajada bo'lib, oddiy infuziya guruhida 28,2±3,5 %, infuzion pompa guruhida esa 29,4±3,3 % ni tashkil etdi. Ushbu farq statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlandi (p>0,05). Shu bilan birga CD19+ V-limfotsitlar ko'rsatkichlari infuzion

pompa guruhida sezilarli darajada kamaygani kuzatildi. Oddiy infuziya guruhida mazkur ko'rsatkich 14,9±2,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, infuzion pompa guruhida 11,5±2,0 % gacha pasaygani kuzatildi (p<0,01). Bu holat V-limfotsitlar faolligining kamayishi va autoantitelalar sintezining susayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin ekanligini ifodalaydi.

Muhokama. Umuman olganda, olingan revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda genno-injener biologik dori vositalarini infuzion pompa yordamida qo'llash revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda kasallik faolligini kamaytirish, funksional holatni yaxshilash va hayot sifatini oshirishda oddiy infuziya usuliga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek yallig'lanish sitokinlari darajasini samarali kamaytirishini, hamda immun tizimida limfosit subpopulyatsiyalari ko'rsatkichlarining normallashtirishiga va

autoimmun yallig'lanish jarayonining kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi.

Shuningdek, tizimli qizil yugurik bilan og'rigan bemorlarda gen-injener biologik preparatlarni infuzion pompa yordamida qo'llash kasallik faolligini kamaytirish, funksional holatni yaxshilash va bemorlarning hayot sifatini oshirishda oddiy infuziya usuliga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek sitokinlar darajasini samarali kamaytirib, immun tizimida limfotsitlar subpopulyatsiyalari ko'rsatkichlarining normallashtirishiga va autoimmun yallig'lanish jarayoni faolligini kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi.

Xulosa. Shunday qilib, revmatik kasalliklarda gen-injener biologik dori vositalarini infuzion pompa yordamida qo'llash revmatik kasalliklarda qo'llash yallig'lanish jarayonini samarali nazorat qilish, immunologik ko'rsatkichlarni normallashtirish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashiga olib keladi, hamda yuqori klinik va immunologik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar gen-injener biologik dori vositalarini infuzion pompa usulidan foydalanishni revmatik kasalliklarni davolash amaliyotida keng qo'llash maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Список литературы / References/Iqtiboslar:

1. Соболева Е. М., Каладзе Н. Н. ПОКАЗАТЕЛИ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ТИМУСА, СТВОЛОВЫХ КЛЕТОК И МАРКЕРОВ АПОПТОЗА У БОЛЬНЫХ ЮВЕНИЛЬНЫМ РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ НА САНАТОРНО-КУРОРТНОМ ЭТАПЕ РЕАБИЛИТАЦИИ //Вестник физиотерапии и курортологии. – 2020. – Т. 26. – №. 3. – С. 96-99.
2. Насонов Е. Л., Авдеева А. С. Иммуновоспалительные ревматические заболевания, связанные с интерфероном типа I: новые данные //Научно-практическая ревматология. – 2019. – Т. 57. – №. 4. – С. 452-461.
3. Загретдинова К. Р. и др. Мультиформальный характер болевого синдрома у пациентов с ревматоидным артритом во взаимосвязи с течением заболевания и клиническими характеристиками //Медицинский алфавит. – 2024. – Т. 1. – №. 10. – С. 37-42.
4. Шодикулова Г. З., Шоназарова Н. Х., Шеранов А. М. Характеристика коморбидного ревматоидного артрита и гипотиреоза //Достижения науки и образования. – 2022. – №. 3 (83). – С. 88-91.
5. Тоиров Э. С., Ахмедов И. А., Султонов И. И. Дисбаланс нервной и эндокринной системы при ревматоидном артрите //Journal of cardiorespiratory research. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 73-76.
6. Абдушукурова К., Исламова К. ВЗАИМОСВЯЗЬ НЕРВНО-ЭНДОКРИННЫХ НАРУШЕНИЙ У БОЛЬНЫХ РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ. В INTERNATIONAL BULLETIN OF MEDICAL SCIENCES AND CLINICAL RESEARCH (Т. 3, Выпуск 11, сс. 16–20). Zenodo //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 16-20.
7. Абдушукурова К. Р., Хамраева Н. А. Особенности Лечения Параклинических Проявлений Ревматоидного Артрита //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 256-262.
8. Khasan I. et al. The Association Between Cardiovascular Disease and Conventional DMARDs in Patients with Rheumatoid Arthritis //International journal of health sciences. – Т. 6. – №. S8. – С. 5053-5059.
9. Ахмедов И., Абдушукурова К., Султонов И. ЗНАЧЕНИЕ САРКОПЕНИИ В ОЦЕНКЕ МЫШЕЧНОГО СТАТУСА У ПАЦИЕНТОВ С РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ //Журнал вестник врача. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 24-27.